



MEHNAT RESURLARINING HUDUDIIY-DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0002-0121-7925
muxabbat.asqarova@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada mehnat resurslari to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari, O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, o'sish tendensiyasi, mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo'yicha taqsimlanishi, ularning mintaqalardagi o'sish tendensiyalari, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mehnatga layoqatli aholi, aholining yosh tarkibi, tug'ilish, yuqori tug'ilish darajasi, o'lim, nikoh, ajralish, aholi zichligi, iqtisodiy o'sish, inson kapitali, mehnat resurslari, doimiy aholi soni.

ТЕРРИТОРИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ

Аскарова Мухаббат Ибрахимовна

Научно-исследовательский центр
«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические взгляды ученых на трудовые ресурсы, распределение постоянного населения Республики Узбекистан по регионам, тенденции роста, структура трудовых ресурсов на экономически активное и неактивное население, тенденции их роста по регионам, распределение по отраслям экономики.

Ключевые слова: трудоспособное население, возрастная структура населения, рождаемость, высокая рождаемость, смертность, браки, разводы, плотность населения, экономический рост, человеческий капитал, трудовые ресурсы, постоянное население.

TERRITORIAL-DEMOGRAPHIC CHARACTERISTICS OF LABOR RESOURCES

Askarova Mukhabbat Ibrahimovna

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics

Abstract. The article discusses the theoretical views of scientists on labor resources, the distribution of the permanent population of the Republic of Uzbekistan by region, growth trends, the breakdown of labor resources by economically active and inactive population, their growth trends in regions, and their distribution by economic sectors.

Keywords: working-age population, the age structure of the population, birth rate, high birth rate, death rate, marriage, divorce, population density, economic growth, human capital, labor resources, permanent population.

Kirish.

Mamlakat aholisi tarkibida mehnat resurslarining o'sishi o'sha mamlakat aholisining ko'payishi bilan bog'liqdir. Aksariyat mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham mehnat resurslarining yoshi 16-59 yosh deb belgilangan. Ularning soni yoshi iqtisodiyotda mehnat resurslarining miqdoriy sonini ifodalasa, bilim, sog'lomligi, malaka, kasbiy mahorati, ishbilarmonligi mehnat resurslarini sifat ko'rsatkichlarini belgilashga asos bo'ladi va ular o'z o'rnida mehnat bozorida taqsimlanadilar.

Har bir mamlakatning bebaho boyligi hisoblangan mehnat resurslari ishlab chiqarish salohiyatini, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini va jahon xo'jaligidagi o'rnini va mavqeyini belgilashda hal qiluvchi, etakchi ahamiyatga ega. Mehnat resurslari – mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi¹. Mehnat resurslarini yoshi ulg'ayib bu guruhni sekin asta tark etib boradi, ularning o'rnini esa o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari egallashadi. Bu jarayon xuddi tabiat qonunlaridek davomiylikka ega. Farqi esa bir insonni bu aylanma harakatda faqat bir marotaba ishtirok etishidadir.

Mehnat salohiyatidan to'laroq foydalanish iqtisodiy rag'batlarning ish beradigan tizimi, ishlab chiqarish imkoniyatlarining rivojlanganligi, ish o'rinlarining zarur miqdorda yaratilishi, ishsizlikni maksimal darajada pasaytirish maqsadida izchil bandlik siyosatini olib borish va mehnat qilish shart-sharoitlarini yaxshilashni talab etadi. Mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish bevosita fan va texnologiyalar va xususan axborot texnologiyalarning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda o'rta va oliy ta'limning rivojlanganlik holati bilan bog'liq.

Har qanday davlatning iqtisodiyoti asosan mavjud mehnat resurslariga bog'liq. Ular ish uchun zarur bo'lgan jismoniy va intellektual qobiliyatlarga ega bo'lgan aholi qismini ifodalaydi. Mehnat resurslari tarkibiga mehnat faoliyati bilan shug'ullanadiganlar va unga potensial qobiliyatli odamlar kiradi. Bunda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi odamlar (ishchilar) mehnat resurslarining asosini tashkil qiladi. Aynan ular tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishini ta'minlaydilar va oxir-oqibat davlat aholisining hayoti va faoliyati uchun iqtisodiy sharoitlar yaratadilar. Binobarin, ularning miqdoriy va sifat o'zgarishlarini tahlil qilish va prognoz qilish iqtisodiyotni davlat boshqaruvining muhim jihati hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Viloyatning mehnat resurslari – u mamlakat aholisining jismoniy va aqliy mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan va hozirgi va potensial ishchi kuchini ifodalovchi qismidir. «Mehnat resurslari» atamasi ilk bor akademik Strumilin (1922) tomonidan XX asrning 20-yillarida yozgan maqolasida keltirilgan bo'lib, inson resurslarini markazlashgan boshqarish sharoitida mehnatga layoqatli aholini hisobga olish va rejalashtirish amaliyoti sifatida qo'llanilgan. Uning fikricha: mehnat resurslari – bu aholining mehnatga layoqatli qismini tavsiflovchi rejali va hisobga olish toifasi.

Ilm-fanning rivojlanishi postindustrial jamiyatda «mehnat resurslari» tushunchasining asosiy parametrlari sifatida: demografik komponent (jins, yosh va boshqalar), ijodiy qobiliyatlar, ta'lim darajasi va shaxsiy rivojlanish darajasi, hayotiy va ishlab chiqarish tajribasi, tarmoq yoki ilmiy hamjamiyat tomonidan malakaga ega bo'lgan maxsus tayyorgarlik darajasi sifatida o'rganishni talab qildi. Hozirgi kunda "mehnat resurslari" tushunchasining turli xil talqinlari mavjud bo'lib, P. E. Shlender, mehnat resurslari "mehnat salohiyati" va "ishchi kuchining umumiy miqdori" iqtisodiy toifalari o'rtasida oraliq o'rinni egallaydigan toifa sifatida, ya'ni "mehnat resurslari – bu aholining jismoniy yoki intellektual imkoniyatlarga ega bo'lgan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga qodir mehnatga layoqatli qismidir" (Макконел, 1992) deb izohlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi <https://stat.uz/uz/>

Z.S.Bogatyrenko «mehnat resurslari mamlakat aholisining ishlab chiqaruvchi kuchlarning ma'lum bir rivojlanish darajasida va berilgan ishlab chiqarish munosabatlari doirasida milliy iqtisodiyotda ishtirok etishga qodir qismidir» deb ta'riflaydi (Касимовский, 1975). A.P.Solovyev «mehnat resurslari faoliyat yurituvchi va potensial ijtimoiy va individual ishchi kuchi tashuvchilari va uni qayta ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar to'plamidir» deb hisoblaydi (Сонин, 1976).

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha mehnat resurslarining ta'lim darajasining oshishi iqtisodiy o'sishga ta'sir etib, ularning iqtisodiy faollik darajasini oshirish orqali hatto aholining de-populyatsiyasi jarayonida ham iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishini ta'minlaydi (Карпенко, 2011).

Jahonda rivojlanish darajasi bo'yicha etakchi o'rin egallagan AQSH mehnat resurslarining ta'lim darajasiga ko'ra o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish respublikamiz uchun tegishli xulosalarni shakllantirish imkonini beradi deb hisoblaymiz. So'nggi chorak asr davomida AQSH mehnat resurslarining tarkibida oliy ta'lim darajasiga ega bo'lganlarning ulushi keskin oshishi bilan xususiyatlandi (Brundage, 2017).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida qiyosiy tahlil, guruhlash, tizimli yondashuv, umumlashtirish, statistik tahlil, abstrakt-tahliliy usullar va boshqalardan foydalanildi.

- tadqiqotning dastlabki bosqichidan uning oxirgi bosqichigacha qiyosiy tahlili, statistik tahlil, tizimli yondashuv usulidan foydalanildi, shuning natijasida ilmiy xulosalar qilindi;
- ma'lumot, ko'rsatkichlarni tahlil va sintez qilishda statistik usullardan foydalanildi.
- demografiyani o'rgangan olimlarning ilmiy- nazariy qarashlari, ilmiy yondashuvlari, bergan ta'riflari tahlili va sintezi usullaridan foydalangan holda, ahamiyatli va muhim tomonlari izohlab o'tildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasida 1991-2024-yillar mobaynida aholi sonining barqaror o'sishi kuzatilib, **doimiy aholisi soni**² 1991-yilda 20,6 mln. kishini, 2001-yilda 24,8 mln. kishini, 2006-yilda 26,3 mln. kishini, 2011-yilda 29,1 mln. kishini, 2021-yilda 34,5 mln kishini, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikaning doimiy aholisi soni 36,8 mln kishini tashkil etib, 1991-yilga nisbatan 16,2 mln kishiga yoki 1,6-martaga o'sgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2024-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra 37,4 mln kishini tashkil etib, Respublikamizning doimiy aholisi soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,1 foizga oshgan. Aholi soni 2024 yil boshidan buyon 555,6 ming kishiga ko'paygan. Jumladan, 2024 yilning har bir oyida o'rtacha 61,7 ming kishiga oshgan. 2024 yilning har bir kunida doimiy aholi soni o'rtacha 2 ming kishiga ko'paymoqda. Doimiy aholining 18 545,9 ming nafarini ayollar, 18 809,5 ming nafarini erkaklar tashkil qiladi. 2024 yilning 1 oktyabr holatiga doimiy aholi tarkibidagi erkaklar soni ayollar sonidan 263,6 ming kishiga ko'p. doimiy aholi sonining 9,6 mln nafarni 14–30 yoshdagilar tashkil etgan.

O'zbekistonda tug'ilish kamaydi, o'limlar soni esa oshdi. Joriy yilning 9 oyida tug'ilgan chaqaloqlar soni 2023 yilning mos davridagidan 22 988 nafarga kam bo'ldi. Nikohlanishlar soni 179,4 minggacha qisqargan. Bu oxirgi 8 yildagi eng past ko'rsatkich. Erkaklarning o'rtacha nikoh yoshi 27,4 yoshni, ayollarniki 22,5 yoshni tashkil qilgan.

2024 yil 1 yanvar holatiga O'zbekistonning doimiy aholisi tarkibi jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 5 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkich – 2 mln 262,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-

² Keltirilgan statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayiti stat.uz sayitidan olingan.

64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan – 657 ming kishi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 5 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkich – 2 mln 108,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan – 736 ming kishi.


1-jadval

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)

	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Res.	28001,4	31022,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	36799,8
Qoraqalpog'iston R.	1632	1763,1	1898,3	1923,7	1948,5	1976,2	2002,7
Andijon	2549,1	2857,3	3127,7	3188,1	3253,5	3322,7	3394,4
Buxoro	1612,5	1785,4	1923,9	1947,1	1976,8	2009,7	2044,0
Jizzax	1116,8	1250,1	1382,1	1410,5	1443,4	1475,5	1507,4
Qashqadaryo	2616,1³	2958,9	3280,4	3335,4	3408,3	3482,3	3560,6
Navoiy	851,6	913,2	997,1	1013,6	1033,9	1055,5	1075,3
Namangan	2258,5	2554,2	2810,8	2867,5	2931,1	2997,5	3066,1
Samarqand	3119,0	3514,8	3877,4	3947,7	4031,3	4118,2	4208,5
Surxondaryo	2075,0	2358,3	2629,1	2680,8	2743,2	2806,5	2877,1
Sirdaryo	714,4	777,1	846,3	860,9	878,6	896,6	914
Toshkent	2585,9	2758,3	2941,9	2975,9	2941,5	2993,4	3051,8
Farg'ona	3074,6	3444,9	3752,0	3820,0	3896,4	3976,3	4061,5
Xorazm	1561,6	1715,6	1866,5	1893,3	1924,2	1958,1	1995,6
Toshkent sh.	2234,3	2371,3	2571,7	2694,4	2860,6	2956,4	3040,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <https://stat.uz/uz//>

Doimiy aholi sonining eng ko'pi Samarqand viloyatida qayd etilgan – 4 million 249 ming nafar. Bu butun O'zbekiston aholisining 11,4 foizi degani. Shuningdek, Farg'ona (4,1 million kishi), Qashqadaryo (3,6 million kishi), Andijon (3,4 million kishi) va Namangan (3,1 million kishi) viloyatlarida nisbatan ko'p aholi istiqomat qiladi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining hududlar bo'yicha o'sish tendensiyasi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <https://stat.uz/uz//>


³ Ko'satilgan yillarda doimiy aholisi soni yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan hududlar

Doimiy aholi sonining ulushi eng kam hudud Sirdaryo viloyati bo'lib, u erda 922,1 ming kishi yashamoqda. Navoiy (1,1 million kishi), Jizzax (1,5 million kishi), Xorazm (2 million kishi) viloyatlari va Qoraqalpog'istonda (2 million kishi) nisbatan kam aholi istiqomat qiladi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, har bir hududda 2010-2024-yillarda aholi soni o'sishi kuzatilgan, lekin bu ko'rsatkichlar notekisligini kuzatishimiz mumkin. Faqat Sirdaryo viloyatida 14-yillik ko'rsatkichlarda tafovutlar boshqa hududlarga nisbatan sezilarli darajada emas.

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'sishi: Qoraqalpog'iston Respublikasi – 1,4 %; Andijon viloyati – 2,1 %; Buxoro viloyati – 1,7 %; Jizzax viloyati – 2,1 %; Qashqadaryo viloyati – 2,2 %; Navoiy viloyati – 1,8 %; Namangan viloyati – 2,2 %; Samarqand viloyati – 2,2 %; Surxondaryo viloyati – 2,5 %; Sirdaryo viloyati – 1,9 %; Toshkent viloyati – 1,9 %; Farg'ona viloyati – 2,1 %; Xorazm viloyati – 1,9 %; Toshkent shahri – 2,7 % tashkil etdi.

Hozirda O'zbekistonning doimiy aholisi 37 million 335 ming nafarga etgan. Bu demografik o'zgarishlar mamlakatda aholi o'sish sur'atlarining pasayishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Mehnat resurslari 19739,6 ming kishi, ya'ni umumiy aholining 53,4 foizini tashkil qiladi. Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 15038,3 ming kishini tashkil etgan (jami mehnat resurslarining 76,1 %) va bu ko'rsatkich 2000 yilga nisbatan 5 339 ming kishiga yoki 59,2 % o'sgan.




2-rasm. O'zbekistonda mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo'yicha taqchilaniishi

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <https://stat.uz/uz/>

Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan yillar mobaynida iqtisodiy faol va ish bilan band aholi soni o'sgan. Mehnat resurslarining mamlakatimiz hududlari bo'yicha taqsimotiga ko'ra, respublika bo'yicha jami mehnat resurslarning eng yuqori ulushi Samarqand (11,1 %) va Farg'ona (10,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinlarda Qashqadaryo (9,6 %), Andijon (9,2 %) viloyatlari va boshqa viloyatlar egallagan. Mehnat resurslarining eng past ulushi Sirdaryo (2,5 %) va Navoiy (2,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda (1-rasm).


Bundan tashqari, yillar davomida mehnat resurslarining o'sish ko'rsatkichi eng kam hududlar Sirdaryo, Navoiy, Jizzax viloyatlarida kuzatilmoqda. 1- rasmdan ko'rinib turibdiki, mehnat resurslari oxirgi 14-yil ichida Toshkent shahri, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida sezilarli darajada oshgan.



3-rasm. Mehnat resurslarining hududlardagi o'sish tendensiyalari

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <https://stat.uz/uz//>

Aholining iqtisodiy faollik darajasi respublika bo'yicha 2023- yilda 72,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 73,7 foizni 2021 yilda esa 74,1 foizni tashkil etgan. 2023 yilda aholining iqtisodiy faollik darajasi Toshkent shahri (87%) Toshkent viloyati (77,5 %), Andijonda viloyati (75,9 %)larida kuzatildi. Oxirgi 10 yil davomida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida (88.8%) 2019 yilda kuzatilgan edi.



4- rasm. 2023-yilda mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <https://stat.uz/uz//>

Mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichi ularning milliy iqtisodiyotda ish bilan bandligida ifodalanadi. Ish bilan bandlik – bu iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofiq, daromad keltiradigan faoliyatga ega bo'lishidir. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonunining 2-moddasiga asosan ish bilan ta'minlash – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

Xulosa va takliflar.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga faqat aholining ushbu guruhini mamlakat iqtisodiyotiga maqbul jalb etish sharoitlarida erishish mumkin. Shu sababli mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari tizimida mehnat resurslari balansi bo'yicha iqtisodiy safarbarlik ko'rsatkichlari (iqtisodiyotda band bo'lganlar ulushining mehnatga layoqatli qismiga nisbatan) muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat resurslari sonining doimiy aholi o'sish suratlari nisbatan ustuvor ravishda o'sishi ularning milliy iqtisodiyotdagi bandligi tendensiyalariga ham jiddiy ta'sir etib, yangi ish o'rinlarini yaratish va ularni iqtisodiyot tarmoqlari va mintaqalari bo'yicha oqilona va samarali band etish zaruratini keltirib chiqardi. Mehnat resurslaridan unumli foydalanishni ta'minlash uchun quyidagilarni:

- yangi ish o'rinlarini yaratishni qo'llab-quvvatlashni yana-da kuchaytirish maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish;

- zamonaviy iqtisodiyotni rivojlanishi va raqamlashtirishni inobatga olgan holda fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan yuqori texnologik va daromadli ish o'rinlarini barpo etish;

- respublikaning tuman markazlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish hamda agroservis xizmati ko'rsatish orqali mehnat resurslarini bandligini oshirish kabi ishlarni yo'lga qo'yish maqsadli deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Brundage V. (2017) *Profile Of The Labor Force By Educational Attainment*. <https://www.bls.gov/spotlight/2017/educational-attainment-of-the-labor-force/pdf/educational-attainment-of-the-labor-force.pdf>

Карпенко М.П. (2011) *Образовательная геодемография России*. М.: СГУ, -224 с.

Касимовский, Е.В. (1975) *Трудовые ресурсы: формирование и использование* / Е. В. Касимовский. – М.: Экономика, – 254 с.

Макконел, К.Р. (1992) *Экономикс: принципы, проблемы и политика* / К. Р. Макконел, С. Л. Брю. – М. Дел., – 972 с.

Сонин, М.Я. (1976) *Экономика труда* / М. Я. Сонин, под общ. ред. И. П. Иванова. – М.,

Струмилин, С.Г. (1922) *Наши трудовые ресурсы и перспективы* / С. Г. Струмилин. – *Хозяйственное строительство*, – Вып. 2. – С. 32–46.